

O'QUVCHI YOSHLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGI KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIY PEDAGOGIK MEXANIZMLARI

Shodiyeva Shohsanam Furqatovna

NavDPI San'atshunoslik fakulteti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo'nalishi

2-kurs magistranti

Annotasiya: Mazkur maqolada ta'lif jarayonida o'quvchi-yoshlarda axborot xavfsizligi ko'nikmalarini shakllantirishning ijtimoiy-pedagogik jihatdan mazmun-mohiyati haqida so'z borib, axborot xavfsizligi tushunchasi, uning mazmun-mohiyati ilmiy-nazariy jihatdan asoslanib, bugungi kunda axborot xavfsizligi borasida amalga oshirilayotgan pedagogik jarayonlar haqida so'z boradi. Shuningdek, muallif bugungi globallashuv davrida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xususan, dunyoning ayrim mintaqalarida toboro kuchayib, ildiz otib borayotgan ma'naviy inqiroz xavfi, xalqimiz ma'naviyatini asrash hamda kelgusi avlodga to'la-to'kis yetkazish, ayniqsa, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g'oya va mafkurlar ta'siridan himoya qilishda axbortlarning ahamiyati masalalariga haqida tushuncha berilgan

Kalit so'zlar: Axborot, globallashuv, ommaviy madaniyat, axborot iste'moli madaniyati.

O'zbekistonda ta'lif tizimini tubdan isloq qilish, o'qitish sifati va mazmunini yangi bosqichga ko'tarish, malakali kadrlar tayyorlashning zamonaviy mexanizmini yaratish, o'quv dasturlari va adabiyotlarini yangilashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich, tizimli ravishda amalga oshirilmoqda. Biz tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, insoniyat hozirga qadar boshdan kechirgan davrlardan tubdan farq qiladigan o'ta shiddatli va murakkab bir zamonda yashamoqdamiz. Davlat va siyosat arboblari, faylasuflar va jamiyatshunos olimlar, sharhlovchi jurnalistlar bu davrni turlicha ta'riflab, har xil nomlar bilan atamoqdalar. Kimdir yuksak texnologiyalar zamoni desa, kimdir tafakkur asri, yana birov yalpi axborot davri sifatida izohlamoqda. Chunki ularning har biri o'zida bugungi serqirra va rang-barang hayotning qaysidir belgi alomatini aks ettirishi tabiiy. Ammo ko'pchilikning ongida bu davr globallashuv davri tariqasida taassurot uyg'otmoqda. Globallashuv jarayoni hayotimizga tobora tez va chuqur kirib kelayotganing asosiy omili va sababi xususida gapirganda shuni obektiv tan olish kerak-bugungi kunda har qaysi davlatning taraqqiyoti va ravnaqi nafaqat yaqin va uzoq qo'shnilar, balki jahon miqyosida boshqa mintaqa va hududlar bilan shunday chambarchas bog'lanib boryaptiki, biron mamlakatning bu jarayondan chetda turishi ijobjiy natijalarga olib kelmasligini tushunish, anglash qiyin emas. Shu ma'noda, globallashuv-bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir. Har

bir ijtimoiy xodisaning ijobjiy va salbiy tomoni bo'lgani singari, globallashuv jarayoni ham bundan mustasno emas. Hozirgi paytda uning g'oyat va keng qamrovli 84 ta'sirini deyarli barcha sohalarda ko'rish, hiz etish mumkin. Zamonaviy axborot texnologiyalarining taraqqiyoti sanoat shijoati, kompyuter jinoyatchiligi, konfedensial ma'lumotlarga ruxsatsiz kirish, o'zgartirish, yo'qotish kabi salbiy hodisalar bilan birgalikda kuzatilmogda. Shuning uchun axborotni muhofaza qilish har qanday mamlakatda muhim davlat vazifasi hisoblanadi. O'zbekistonda axborotni muhofaza qilishning zaruriyati axborotni muhofaza qilishning davlat tizimi yaratilishida va axborot xavfsizligining huquqiy bazasini rivojlantirishda o'z ifodasini topmoqda. «Axborotlashtirish to'g'risida», «Davlat sirlarini saqlash to'g'risida», «Elektron hisoblash mashinalari dasturlari va ma'lumotlar bazalarini huquqiy himoya qilish to'g'risida» va boshqa qonunlar hamda bir qator Hukumat qarorlari qabul qilindi va amalgalatishga amalga tatbiq etilmoqda. Shu o'rinda axborot, axborot xavfsizligi, ommaviy axborot vositalari, axborot madaniyati, ta'lim jarayonida axborot almashish kabi tushunchalarga to'xtadigan bo'lsak, bularning barchasi albatta o'quvchi-yoshlarga, shaxsning shaklanishiga ta'sir etuvchi omillar sanalmish irsiyat, muhit, va ta'lim tarbiya jarayonida amalga oshiriladi va ularning shakllanishiga ta'sir etadi. Axborot o'zi nima, axborot va uning turlari, axborot xavfsizligi tushunchalari ta'riflaydigan bo'lsak. Axborot – manbalari va taqdim etilish shaklidan qat'i nazar shaxslar, predmetlar, faktlar, voqealar, hodisalar va jarayonlar to'g'risidagi ma'lumotlar; Axborotni muhofaza etish – axborot borasidagi xavfsizlikka tahdidlarning oldini olish va ularning oqibatlarini bartaraf etish chora-tadbirlari; Ommaviy axborot – cheklanmagan doiradagi shaxslar uchun mo'ljallangan hujjatlashtirilgan axborot, bosma, audio, audiovizual hamda boshqa xabarlar va materiallar; Hujjatlashtirilgan axborot – identifikatsiya qilish imkonini beruvchi rekvizitlari qo'yilgan holda moddiy jismda qayd etilgan axborot; Maxfiy axborot – foydalanishi qonun hujjatlariga muvofiq cheklab qo'yiladigan hujjatlashtirilgan axborot¹. Konfedensial axborot – hujjatlashtirilgan axborot, undan foydalanish qonun hujjatlariga muvofiq chegaralanadi². Shaxsning rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillardan biri ta'lim-tarbiya jarayonida axborot xavfsizligi ko'nikmalarni shakllantirish asosiy o'rin tutadi. Shu boisdan umumiyligida o'rta ta'lim maktablarida o'qitiladigan ijtimoiy fanlar albatta, bugungi kunda dunyoda, mintaqada, respublikamizda bo'layotgan siyosiy voqealar haqida o'rgatadi. Axborot xavfsizligi deganda tabiiy yoki sun'iy xarakterdagi tasodifiy yoki qasddan qilingan ta'sirlardan axborot va uni qo'llab-quvvatlab turuvchi infrastukturaning himoyalanganligi tushuniladi. Bugungi kunda axborot xavfsizligini ta'minlaydigan uchta asosiy tamoyil mavjud: → ma'lumotlar butunligi – axborotni yo'qotishiga olib keluvchi buzilishlardan, shuningdek ma'lumotlarni mualiflik huquqi bo'limgan holda hosil qilish yoki yo'q qilishdan himoya qilish; → Axborotning konfedensialligi. Axborot va uning tashuvchisining holatini belgilaydi va unda axborot bilan ruxsatsiz tanishishning

yoki uni ruxsatsiz hujjatlashtirishning (nusxa ko‘chirishning) oldini olish ta’milangan bo‘ladi; → Foydalanish huquqlariga (mualliflikka) ega barcha foydalanuvchilar axborotdan foydalana olishliklari.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh.M.Mirziyoyev "Taqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak". Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-shtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan shtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'naliishlariga bagishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017-yil 14-yanvar.
2. Bespalko V.P. Pedagogika i progressivnie texnologii obucheniya. M., «Pedagogika», 1995. 233-bet.
3. SOROS xalqaro ochiq jamiyatining «Taqidiy fikrlashni rivojlantirish asoslari» fanlararo dasturi. T. 2004.
4. Умаров Б. Ижтимоий фанларни ўқитиши жараёнида талабаларда ватан тараққиёти ғоясини шакллантириш //центр научных публикаций (buxdu. uz). – 2021. – Т. 2. – №. 2.
5. Ortiqov O. R. Globallashuv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillari //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №.